

Raqamli texnologiyalar vazirligining
2024-yil 23 -dekabrda
268-son buyrug'iga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining
korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha
SIYOSATI**

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalar (keyingi o'rinlarda – Vazirlik tizimi)da halollik siyosatini ta'minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek, lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog'ida tizim xodimlari tomonidan korruptsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

2. Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son, "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16 iyundagi PF-6247-son, "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2016-yil 2-martdagi 62-son qarorlariga muvofiq korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – talablar va ularni qo'llashga doir tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Vazirlik tizimi Siyosatni o'z faoliyati o'ziga xosligidan kelib chiqib qabul qiladi, o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar, mavjud resurslar asosida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

4. Quyidagilar Vazirlik tizimi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

Vazirlik tizimi tizimi xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korruptsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;

Vazirlik tizimi tizimida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korruptsiyaga barham berish;

Vazirlik tizimi tizimining barcha faoliyat sohalarida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Vazirlik tizimi tizimi xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

korruptsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlarini, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;

Vazirlik tizimida mavjud korruptsiyaga barham berish.

5. Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Vazirlik tizimining barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

6. Vazirlik tizimiga ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi lozim.

7. Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

aloqador shaxslar - Vazirlik tizimi xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

davlat organlari va muassasalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (jumladan, tashkilotlar, xizmatlar, agentlik, markazlar va b. idoralar) va ularning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek, davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

ish faoliyati yuzasidan mehmondo'stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Vazirlik tizimi xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, tizim xodimlari manfaatlari yo'lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq harajatlar va h.k.;

kontragent – Vazirlik tizimi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – Vazirlik tizimi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan tashkilot nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korruptsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – Vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – korruptsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Vazirlik tizimining korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, tizim xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

kronizm (favoritizmning do‘stona aloqalarga asoslangan ko‘rinishi) – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat yoki obro‘sidan foydalanish;

mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

manfaatlar to‘qnashuvi – Vazirlik tizimi xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

mahalliychilik – mahalliy manfatlarnigina ko‘zlab ish tutish, bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof e’tilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotasiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) - o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Vazirlik tizimi manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog‘liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta’minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me’yorlar hamda qoidalarda ko‘zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

urug‘-aymoqchilik – Vazirlik tizimi xodimining avlod-ajdodlari bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm – Vazirlik tizimi xodimi boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko‘tarish, mukofot puli berish va

davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvalarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning Vazirlik tizimi uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

xalqaro tashkilot – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy tashkilotlar;

xodim – Vazirlik bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

homiylilik (homiylilik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Vazirlik tizimi (homiylilik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Vazirlikning tizim muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

shafelik – Vazirlik tizimi xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek, er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

2 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari

8. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

qonuniylilik - Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek, Vazirlik tizimi ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

korrupsiyaga nisbatan murossasizlik (toqatsizlik) – Vazirlik tizimi o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murossasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi, Vazirlik tizimi hodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iyani taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik - Vazirlik tizimi xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Vazirlik tizimida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimlilik va yaxlitligi - korrupsiyaning oldini olish,

korruptsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korruptsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi, korruptsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Vazirlik tizimining barcha funksiyalari va yo‘nalishlarini qamrab olgan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

korruptsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlari - korruptsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Vazirlik tizimi xodimlari o‘zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Vazirlik tizimining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish - Vazirlik tizimi korruptsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish - Vazirlik tizimining har bir xodimi korruptsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Vazirlikning ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hududiy boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassasa rahbari hamda vazirga hech qanday to‘siqsiz murojaat qilishi mumkin;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik - Vazirlik tizimi o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

monitoring, tahlil va baholash - Vazirlik tizimi davriy asosda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish - korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘riladi.

3 bob. Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

1-§. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish

9. Vazirlik tizimi xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeidan va tashkilot tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

10. Vazirlik tizimi xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko‘tarilayotganda va rotasiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar/shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.

11. Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni Vazirlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo‘yiladi.

12. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Vazirlik tizimi xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha

funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).

2-§. Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish

13. Vazirlik tizimi xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘alar mehmondo‘stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog‘ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan mustasno hisoblanadi.

14. Vazirlik tizimida ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan va xodim shaxsi bilan bog‘liq deb e’tirof etilgan sovg‘alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

sogv‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg‘a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

sogv‘a ochiq-oydin beriladi, sovg‘a berilayotgani yashirilmaydi;

sogv‘ani faqat umume’tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sogv‘alar tashkilotning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

sogv‘ani berish chog‘ida sovg‘a berish uchun sabab bo‘lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi;

sogv‘aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

Vazirlik tizimining bir xodimi ikkinchi xodimga sovg‘a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

15. Shubha (gumon)lardan holi bo‘lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug‘ilgan kun, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 13 va 14-bandlarida keltirib o‘tilmagan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 13-bandida sanab o‘tilgan sovg‘alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

16. Tashkilot nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg‘alar berish rahbar buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Sovg‘a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug‘ilgan taqdirda Vazirlik tizimi xodimi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga maslahat so‘rab murojaat qilishi lozim.

3-§. Vazirlik tizimi xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi

18. Vazirlik tizimi xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir Vazirlik tizimi yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbir Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot tashkilotiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi lozim;

tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Vazirlik tizimi va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim;

tadbir umume'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

19. Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Vazirlik tizimining o'zida bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

4-§. Kadrlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)

20. Vazirlik tizimi xodimlarini tanlash, attestasiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

21. Nomzodlarni Vazirlik tizimiga tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni tashkilotga qabul qilish uchun tekshirish bo'yicha qo'llanma va Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

22. Vazirlik tizimida xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zahirasi qo'shganda va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etishi taqiqlanadi.

23. Bo'sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

24. Vazirlik tizimida xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va Vazirlik tizimi xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi lozim.

5-§. Tekshiruvlar o'tkazish va Vazirlik tizimi, uning tasarrufidagi tashkilot va muassasalar, hududiy boshqarmalari va bo'limlari faoliyatini o'rganish

25. Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda – tekshiruv obyektlari) Vazirlik tizimi xodimlari:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti tekshiruvi, o'rganishi, monitoringini yakka o'zi amalga oshirmasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari tashkilot, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi;

yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekti xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo'rqitmasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti xodimlariga tahdid qilmasligi;

hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi lozim;

tekshiruv, o'rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;

qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), Vazirlik tizimi tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi;

agar tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillari Vazirlik tizimi xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha ishchi guruh rahbariga va Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasiga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillariga Vazirlik tizimi xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

26. Vazirlik tizimi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

6-§. Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash

27. Vazirlik tizimi mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

28. Kontragentlar bilan munosabatlarda Vazirlik tizimi qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

29. Vazirlik tizimida obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq-shaffof

jarayoni, shuningdek, sotib olinayotgan tovar hamda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Vazirlik tizimining ichki xujjatlari bilan tartibga solinadi.

30. Kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikda Vazirlik tizimi:

kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchligi, jumladan u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Vazirlik tizimi xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g'olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo'shish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

34. Vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda (masalan, lisenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) Vazirlik tizimi hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi.

7-§. Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta'minlash

35. Vazirlik tizimi qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Vazirlik tizimining Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

36. Vazirlik tizimi tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo'lmasligi va Vazirlik tizimining alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

37. Vazirlik tizimi tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim;

bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

Vazirlik tizimining Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

8-§ Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

38. Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o'tkazishda Vazirlik tizimining yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi

korruptsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o'tkazadi.

9-§ Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish

39. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida Vazirlik tizimi xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoni mavjud bo'lsa).

40. Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o'tkazishda Vazirlik tizimi xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o'zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo'llagan holda amalga oshiradi.

10-§ Vazirlik tizimidagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyasiyasi

41. Vazirlik tizimi binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Vazirlik tizimining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rib boriladi.

42. Vazirlik tizimining Internet tarmog'idagi rasmiy saytlarida korruptsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyasiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish, ularni testdan o'tkazish, komissiyalar yig'ilishlari va h.k.).

4 bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari

1-§ Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi

43. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

mazkur Siyosat;

Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalar;

Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

44. Vazirlik tizimi rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko'rsatishi lozim.

45. Vazir va uning o'rinbosarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishi va shu orqali ularda korruptsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

46. Vazir va uning o'rinbosarlari Vazirlik tizimi faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo'nalishlari)ga korruptsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.

2-§. Korruptsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash

47. Vazirlik tizimi o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalda oshiradi.

48. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Vazir tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi dastur yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

3-§. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul

48. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil etiladi.

49. Vazirlik va uning tizimidagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari o'z faoliyatini Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiradi va bevosita Vazirga bo'ysunadi.

50. Vazir va tizimdagi rahbarlar Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi.

51. Vazirlik tizimi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi va aktuallashtirilishi uchun javob beradi.

52. Vazirlik tizimida alohida Odob-ahloq komissiyasi faoliyat yuritadi.

. Vazirlik tizimidagi Odob-axloq komissiyasi Vazirlik tizimidagi xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek, Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

4-§ Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash

53. Vazirlik tizimi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi.

54. Vazirlik tizimi barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek, joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

Vazirlik tizimi rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Vazirlik tizimida xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

Vazirlik tizimi xodimlarini Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash;

yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish;

Vazirlik tizimidagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Vazirlik tizimining Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasida saqlanadi;

mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish;

mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Vazirlik tizimi xodimlariga maslahatlar berish;

tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;

Vazirlik tizimi xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish. Vazirlik tizimi mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Vazirlik tizimining yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritadi.

Vazirlik tizimi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Vazirlik tizimining yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Vazirlik tizimining barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo'yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

5-§ Monitoring, nazorat va hisobdorlik

55. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul Vazirlik tizimida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yitarliligi va mutanosibligini baholanishini amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

56. Monitoring va nazorat Raqamli texnologiyalar vazirligida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga va Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

57. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirilishi lozim:

Vazirlik tizimi faoliyati funksiyalari va oʻziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi oʻzgarishlar, tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni toʻgʻirlash zarurati, jumladan uning Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini taʼminlashga taʼsiri tahlili;

Oʻzbekiston Respublikasining faoliyatida qoʻllaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha samarali tizimini yaratish va qoʻllab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

ommaviy axborot vositalarining Vazirlik tizimi yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, shuningdek Vazirlik tizimi kontragentlari yoki hamkorlari toʻgʻrisida xuddi shunday maʼlumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini taʼminlash maqsadida tanlov asosida Vazirlik tizimining ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish;

Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yoʻl xaritasi bndlari bajarilishining toʻliqligi va samaradorligini monitoring qilish;

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

Vazirlik tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar toʻgʻrisida xabardorligini tekshirish.

58. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini oʻtkazish, jumladan Vazirlik tizimida belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

59. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish boʻyicha ichki idoraviy hujjatda mustahkamlab qoʻyiladi.

6-§. Javobgarlik

60. Mazkur Siyosatga mos kelish va Vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning oʻz lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlarida belgilab qoʻyilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar boʻladi.

61. Korruptsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Vazirlik tizimining barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korruptsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iyan man etiladi, ya'ni:

o'z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek, xizmat mavqei va vakolatlarini suiste'mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so'rab olish yoki so'rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek, xodim tomonidan o'z lavozim mavqeidan Vazirlik tizimining qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o'zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish;

davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta'sir o'tkazish (harakatsizligini ta'minlash) yoki shaxs, jumladan Vazirlik tizimi manfaatlarini yo'lida noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo'rlik) ni taklif qilish, va'da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

poraxo'rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o'rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo'yicha kelishuvga erishishda yordam berish;

Vazirlik tizimi xodimlarining korruptsiya belgilari mavjud bo'lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.

62. Xodimlar o'z rahbari va Vazirlik tizimining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korruptsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek, ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.

63. Korruptsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Vazirlik tizimida xodimlar tomonidan korruptsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Vazirlik tizimida xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan tartibda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

64. Mazkur Siyosat, korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari yoki Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan tashkilot xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Vazirlik tizimining ichki hujjatlari doirasida va ularda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

65. Korruptsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qiladi va doimiy ravishda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

66. Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Vazirlik tizimi hay'ati va Vazirlik tizimining tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga taqdim etiladi.

67. Vazirlik tizimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va tergov qilish uchun huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

7- bob. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar

68. Vazirlik tizimi xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida Vazirlik tizimining umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

69. Vazirlik tizimi o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

70. Vazirlik tizimi o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, diskriminasiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

71. Vazirlik tizimining aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Vazirlik tizimi mas'ul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni ko'rib chiqishga oid ichki hujjatlar va Vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqiladi.

72. Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan ataylab yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Vazirlik tizimining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

8- bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgarishlar kiritish tartibi

73. Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va to'g'irlanishi mumkin:

mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchiligi o'zgarganda;

samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek Vazirlik tizimi faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

Vazirlik tizimining tashkiliy tuzilmasi yoki funksiyalarining o'ziga xos jihatlari o'zgarganda va h.k.